# QOʻSHTEPA: SERTIFIKATLAR TOPSHIRILDI

Yurtimizda qisqa muddatli oʻquv kurslari orqali ayollarning ishsiz qatlamiga, oʻzlari qiziqqan kasb-hunarga oʻrgatishga juda katta ahamiyat berilmoqda. Barcha joylarda boʻlgani singari Qoʻshtepa tumanida ham xotin-qizlar bandligi bilan bogʻliq muammolar kundan-kunga oʻz yechimini topib bormoqda.

Xususan, Shodlik MFY hududida joylashgan “BioOmina” MChJ qoshida tashkil etilgan monomarkazda xotin-qizlar uy hamshirasi boʻyicha qisqa muddatli oʻquv kurslariga jalb etilib, ular zarur bilim va koʻnikmalarga ega boʻldilar. 3 oylik oʻquv kursini tamomlagan 10 nafar xotin-qizlarga uy hamshirasi sertifikati topshirildi.

**Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating**
Facebook,
2023-07-03 10:53:35